

Denov tumani 5-sonli maktabning yangi o'quv yiliga shayligi o'rganildi



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Denov tumanidagi 5-sonli maktabga tashrif buyurib, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlarining borishi bilan tanishdi, amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Maktab hududida obodonlashtirish ishlari olib borilgan, bo'sh yer maydonlariga gullar ekilgan va parvarishi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, sinf xonalar, o'quvchilarga kasb o'rgatish uchun amaliyot xonalari shay holatga keltirilgan.

Viloyat rahbari maktab ma'muriyati va mas'ullari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni e'tirof etdi va maktab binosining fasad qismini bo'yash bo'yicha tuman mas'ullariga topshiriq berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)